

Obuna indeksi - 904

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1
2022
(yanvar-fevral)

XALQ TA'LIMI 1/2022




www.pubedu.uz



<https://t.me/xalqtalimijn>





HURMATLI USTOZ VA MURABBIYLAR!

"Xalq ta'limi" ilmiy-metodik va "Xalq ta'limi axborotnomasi" jurnallari bugungi kunda o'qituvchi-pedagoglarning eng kerakli nashriga aylanib, ularga yaqin ko'makchi bo'lib kelmoqda. Uning sahifalarida nashr etilayotgan maqolalardan o'qituvchilar dars jarayonida, mashg'ulotlarda, seminar-treninglarda foydalanayapti.

2022-yilda jurnallarimiz o'z faoliyatini yanada takomillashtirishni maqsad qilgan. Sahifalarimizda uzlusiz ta'lim tizimidagi eng so'nggi yangiliklar, texnologiyalar, metodlar ilmiy metodik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Shu bois, jurnallarimiz har bir o'qituvchi-pedagog qo'lida bo'lishi maqsadga muvofiq.

2022-yilda obuna davom etadi. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik va "Xalq ta'limi axborotnomasi" jurnallariga obuna bo'lishni unutmang!

Obuna indekslari:

- "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali – **904**
- "Xalq ta'limi axborotnomasi" jurnali – **924**

– malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini kasbiy diagnostik tahlil qilishni yo'lga qo'yish;

– o'qituvchini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda asosiy e'tiborni o'quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni va o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratish;

Natijada, mediakompetentlikka ega mutaxassis o'z bilimlarini izchil boyitib, yangi axborotlarni o'zlashtirib, davr talablarini chuqur anglab, yangi bilimlarni izlab topib, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay olishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sod farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 6сон, 70-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021–yil 25–yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4963-sonli qarori.

3. Kubey R. (1997). *Media Education: Portraits of an Evolving Field*. In: Kubey, R. (Ed.) *Media Literacy in the Information Age*. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2.

4. Никитина Е.Ю., Милютина А.А. Формирование медиакомпетенции младших школьников на уроках русского языка. Монография. – М., 2015.

Azizbek UMAROV,

Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LG'USI MUXANDIS PEDAGOGLARNING MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada ta'limdi axborotlashtirish sharoitida bo'lg'usi muxandis pedagooglarning mediadaniyatini rivojlantirib borish, zamonaviy media atrofdagi dunyoni insoniy o'zlashtirishning murakkab vosita ekanligi to'g'risida gap boradi.

Kalit so'zlar. Ta'limdi axborotlashtirish, mediadaniyat, zamonaviy media, elektron media, ta'lim funksiyalari.

В статье рассматривается развитие медиакультуры будущих педагогов-инженеров в контексте информатизации образования, то обстоятельство, что современные медиа являются комплексным инструментом освоения человеком окружающего мира.

Ключевые слова. Информатизация образования, медиакультура, современные медиа, электронные медиа, образовательные функции.

The article discusses the development of media culture of future engineering educators in the context of informatization of education, the fact that modern media is a complex tool for human assimilation of the world around.

Key words. Informatization of education, media culture, modern media, electronic media, educational functions.

Zamonaviy media atrofdagi dunyoni insoniy o'zlashtirishning murakkab vositasi bo'lib, elektron medianing multimedia, interaktivlik, modellashtirish, aloqa-viylik va samaradorlik kabi o'ziga xos xususiyatlari medianing yangi ta'lism funksiyalari haqida gapirishga imkon beradi va shu asosda ta'lism media-mahsulotlarini, ta'larning axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi.

Media ta'lism – tarbiya jarayonining mazmuni va uslubiga tubdan o'zgarishlar kiritadi, ta'lism-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan o'z faoliyatini aks ettirishga, uni mustaqil tartibga solishga yo'naltirilgan pedagogik muammolarni yechishga imkon beradi. Medianing o'ziga xos xususiyatlarini tushunish va hisobga olish zamonaviy o'qituvchiga o'z pedagogik faoliyatini axborot olamidagi zamonaviy o'zgarishlarga mos ravishda, zamonaviy talabaning yangi axborot ehtiyojlari bilan, turli muammo-larni hal qilish jarayonini aniq va to'g'ri tashkil etish, o'z kasbiy malakasini oshirish jarayonida mediadan mohirona foydalanish imkonini beradi.

Mediakompetentlilik tushunchasini uch yoqlama ifodalash mumkindir:

1. Kommunikativ kompetensiya – bu umumiy shakl bo'lib, unda kishilar ijtimoiy va jamoatchilik o'zaro ta'sirlashuvlari sharoitlarida yashashni o'rganadilar va "reallik"ka kommunikativ harakatlar vositasida erishilishi uchun harakat qiladilar. Bu umumiy "kommunikativ kompetensiya" o'z ona tilini o'rganishdan boshlanadi va o'qitishning yangicha mazmuni hamda shakllari sifatidagi rivojlanuvchi multimedialiyy imkoniyatlarning qo'llanishi bilan hali tezda tugallanmaydi.

2. Bu kommunikativ kompetensiya barcha odamlarda ularning tug'ilish davrida mayjud bo'ladi, u odamning bazisli resurslariga taalluqli bo'ladi. Baribir bu kompetensiyanı o'rganish, amalda qo'llash va rivojlantirish lozim bo'ladi; bugungi kunlarda biz oiladagi dastlabki ijtimoiylashuvdan kelib chiqqan holda, turli xildagi ta'lism yo'nalishlari vositasida kommunikativ kompetensianing rivojlanishiga yordam beramiz, bunga yana kundalik tajribalarni va kelgusidagi o'qitishda o'z-o'zidan ijtimoiylashuvchi jarayonlarni ham qo'shimcha qilib kiritish mumkin.

3. Mediakompetentlilik – "kommunikativ kompetentlilik"ning tarkibiy qismi bo'lib, u asosan, barcha turdag'i medialar bilan ishlash sohasidagi elektron-texnik kontaktlarga yo'naltiriladi, ular bugungi kunlarda majmuaviy xilma-xililikda taqdim etiladi, ulardan foydalanishni o'rganish, amaliyotga va dasturiy talablarga kiritish zarur bo'ladi. Bu dastlabki konseptual nuqtayi nazarlarga qaramasdan, D.Baake quyidagi uchta yetakchi yo'nalishlarga rioya qilishni tavsiya etadi:

a) Mediakompetentlilik tushunchaning o'z ma'nosidan ham yaqqol ko'rinish turganidek, barcha – nashrli, radio va televideniye, kasseta va videomagnitofonlar, telefon va pleerlardan tortib to interfaol va multimedialiyy turlarigacha bo'lgan medialarni qamrab oladi.

b) Mediakompetentlilik endilikda shakllanib ulgurgan bazisli malaka sifatida yakuniy hisobda maktab vositasida uzatilmaydigan mos holdagi o'quv va empirik predmet bo'lib sanaladi, chunki ta'lism oluvchilar (bolalar, yoshlar va katta yoshli kishilar) o'z tomonidan har kuni turli xil media shakllari bilan muomala qiladilar, shuning uchun media endilikda ularning dunyosidagi bir qism bo'lib qoladi.

v) Mediakompetentlilik butun umrlik vazifaga aylanib qoladi, chunki kommunikativ texnologiyalar muttasil yangilanib boradi, shu sababli har doim yangi axborot texnologiyalari bilan muomala qilishni yangidan o'rganib borish hamda ular yordamida o'zini faoliyatda namoyon qilishning paydo bo'lib boradigan imkoniyatlaridan foydalanish zarur bo'ladi.

G. Tulodsiki mediakompetentlilikni "mediatexnologiyalarni ongli ravishda tanlab olish va ulardan foydalanish, o'z mediamatnlarini yaratish va tarqatish, mediadizaynni tushuna olish, medianing ta'sirini bila olish va tahlil qila olish, mediani ishlab chiqish va tarqatish shartlarini ko'ra olish va baholay olish qobiliyatlarini egallaganlik" sifatida ta'riflaydi.

K.P.Troymann, U.Zander va D.Maysterlar mediakompetentlilikni “shaxsning ijtimoiylashtiruvchi omillar va pedagogik ko’maklashish ta’siri ostida uning o’zi tomonidan takomillashtirib boriladigan media bilan muomala qilishga individual qobiliyati” tarzida tavsiflaydilar.

“Media” tushunchasi tarixan rivojlanib kelgan. Avvaliga “media” atamasi “yozuv” degan ma’noni anglatgan, keyinchalik bu tushunchaning ma’nosini kengaygan. G’arb sivilizatsiyasi tarixida an’anaviy ravishda to’rt xil turdagini jamiyat ajralib turadi. Birinchi tur – bu odamlar ov qilish va yig’ish bilan shug’ullanadigan ibtidoiy jamiyat. Ikkinci tur – an’anaviy, qishloq xo’jaligi jamiyat. Uchinchisi – sanoat, industrial jamiyat. So’nggi tur – bu post-industrial, axborot jamiyat.

Jamiyatning har bir turi ma’lum bir “media” to’plamiga mos keladi – ular shartli ravishda besh turga bo’linadi: erta (yozuv), bosma (bosma, litografiya, fotosurat), elektrik (telegraf, telefon, ovoz yozish), ommaviy media (kinematograf, televideeniye), raqamli (kompyuter, Internet).

Lug’atda “media” atamasi yangiliklar va ma’lumotlarning uzatilishi, shuningdek, reklama tarqatilishini o’z ichiga olgan bir nechta funksiyalarini bajaradigan aloqa kanallarini anglatadi. “Media” tarkibiga bosma nashrlar, elektron OAV, Internet, pochta tarqatmalari ham kiradi.

Boshqa bir lug’atda bu atamani ancha sodda tarzda “ma’lumotni yozib olish, saqlash va uzatish uchun ishlatiladigan texnologik xususiyatlari asbob” sifatida tavsiflanadi.

“Media” atamasi texnikada (A.V. Fedorov) va ommaviy axborot vositalarida (Xijnyak I.M.) uzoq vaqtlardan beri ishlatiladi, ammo u pedagogika sohasiga nisbatan yaqin kirib kelgan, bu ta’limga axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari vositalarining faol kirib borishi bilan bog’liq. Shu bilan birga, pedagogika fanida media tushunchasini, uning uzoq tarixiga qaramay, yagona, umumiyligi qabul qilingan atamalari mavjud emas.

Ta’limda “media” atamasining paydo bo’lishi mutlaqo tabiiy hodisadir, chunki zamonaviy axborot (industriyadan keyingi) jamiyatning asosiy tizimini tashkil etuvchi tarkibiy qismi (media texnologiyalari) hisoblanadi.

“Media” tushunchasining mohiyati bo’yicha turli mualliflarning pozitsiyalarini tahlil qilar ekanmiz, media axborot muhiti [A.Fedorov]; yaqqol tashuvchi [E.N.Yastrebseva va boshqalar]; kommunikatsiya vositalari, axborot vositalari [A.V.Sharikov, E.S.Polat va boshqalar] sifatida ta’riflanishini ta’kidlaymiz. Biz “media” atamasini kompleks tarzda belgilashimiz mumkin, deb o’ylaymiz: ham axborot vositasi, ham aloqa vositasi sifatida, shuningdek, ta’lim va tarbiya muammolarini samarali hal qilish mumkin bo’lgan aloqa tizimi sifatida.

Bundan tashqari, media-ta’lim g’oyasi ikkita yondashuvga asoslanadi: birinchi-siga ko’ra “media-ta’limni (media education) zamonaviy ommaviy aloqa vositalarini o’zlashtirish uchun, pedagogik nazariya va amaliyotda bilim sohalarining o’ziga xos va avtonom qismi sifatida qaraladigan o’qitish nazariyasi va amaliy ko’nikmalarini tushunish kerak; uni OAV da ishlatishdan matematika, fizika, geografiya kabi boshqa fanlarni o’qitishda yordamchi ta’lim vositasi sifatida ajratish kerak”; ikkinchi yondashuv tarafdarları (Baran S.D.) “mediata’lim har qanday mamlakatning har bir fuqarosining so’z va axborot olish erkinligiga bo’lgan asosiy huquqining bir qismi, bu demokratiyanı qo’llab-quvvatlashga hissa qo’shami deb hisoblashadi ...”.

Shuni ta’kidlashni istardikki, shaxsning mediakompetentligi faqat media-ta’lim tufayli shakllanadi, shuning uchun biz ushbu atamani tavsiflashni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Media-ta’lim (inglizcha media education, media – vosita) bu “ommaviy aloqa qonuniyatlarini”ni (matbuot, televideeniye, radio, kino, video va h.k) o’rganishni targ’ib qiluvchi pedagogika yo’nalishidir. Media-ta’limning asosiy vazifalari: yangi avlodni zamonaviy axborot sharoitida turli xil ma’lumotlarni idrok etishda, hayotga tayyorlash,

odamni uni tushunishga o'rgatish, uning ruhiyatga ta'sirining oqibatlarini tushunish, texnik vositalardan foydalangan holda og'zaki bo'Imagan aloqa shakllari asosida mu-loqot usullarini o'zlashtirish.

D.M.Djusubaliyevning fikriga ko'ra, ta'limni medialashtirish – bu axborotlashtirshning yuqori jarayonini ifodalaydi, u, chuqur gumanistik ma'no kasb etib, mazmun tarkibi bilan to'lib va jamiyatni kompyuterlashtirish va elektronlashtirishni yaxlit bir butunga birlashtirib, muhandislik-texnik jarayon bo'lishdan to'xtaydi.

Biz "mediata'lism" tushunchasini aniqlashga ikkinchi yondashuv juda mavhum va bu tushunchaning mohiyatini aks ettirmaydi deb hisoblaymiz, shuning uchun biz A.V. Fedorov tomonidan berilgan birinchi yondashuv ta'rifiga amal qilamiz, u mediata'lismi – ommaviy aloqa vositalari (media) bilan aloqa madaniyatini, shuningdek, ijodiy, mu-loqot qobiliyatları, tanqidiy fikrlash, to'laqonli idrok etish, talqin qilish, media matnlarini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish, media texnikadan foydalangan holda o'zini-o'zi ifoda etishning turli shakllarini o'rgatish yordamida shaxsnı rivojlantirish jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.

Shuni ta'kidlashni zarur deb bilamizki, shaxsning mediakompetentligi va tarbiyachining mediakompetentligi bir-biriga to'liq mos kelmaydi, chunki ular prinsipial farqlarga, o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki birinchi navbatda, tarbiyachining kasbiy faoliyati pedagogik deb belgilanadi va ushbu faoliyat tufayli o'ziga xos xususiyatlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun shaxsning mediakompetentligi tarbiyachining izlanayotgan kompetentligini bilimlarini shakllantirishning dastlabki bosqichi bo'lib hisoblanadi.

Yevropa Kengashi hujjatlarida mediakompetentlik – olingan ma'lumotlar asosida o'z fikrlarini bildirishga qodir bo'lgan mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalash uchun mediaga nisbatan tanqidiy va puxta o'ylangan munosabat sifatida ta'riflangan.

A.V.Fedorovning fikriga ko'ra, shaxsning mediakompetentligi – bu turli xil ko'rinish, shakl va janrlarda media matnlarni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, uzatish va yaratish qibiliyatları (motivatsion, aloqa, axborot, perceptiv, talqinli baholovchi, amaliy-operatsion, faoliyatga doir, ijodiy) jamiyatda media faoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilish. Olim, shuningdek, bizning fikrimizcha, shaxsning mediakompetentligining quyidagi komponentlardan tashkil topgan tuzilmasini ishlab chiqishga muvaffaqiyatli harakat qilgan: motivatsion, aloqa, axborot, perceptiv, talqinli baholovchi, amaliy-operatsion (faoliyatga doir), ijodiy. Muallif olingan ma'lumotni tahlil qilish, sintez qilish va o'z bahosini berishga qodir, tanqidiy va ijodiy fikrlashga ega bo'lgan mediakompetentli shaxsning faol pozitsiyasiga e'tibor qaratadi, buni ma'qullamaslikning iloji yo'q.

Hozirgi vaqtida medialashtirish zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda, ta'lim sohasiga axborot, telekommunikatsiya va media texnologiyalarini joriy etish turli didaktik va pedagogik muammolarni hal qilish yo'lida kuchli vositaga aylanmoqda. Bunday sharoitda zamonaviy tarbiyachining kasbiy va shaxsiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarda sezilarli o'zgarishlar mavjud.

Ta'limni kompyuterlashtirish va axborotlashtirish sohasidagi turli olimlarning izlanishlarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlashni istardik, ushbu muammo ilmiy izlanishlarda yetarlicha o'rganilgan, ammo olimlarning sa'y-harakatlari asosan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida ma'lum ko'nikma va qibiliyatları shakllantirish yoki rivojlantirishga qaratilgan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari o'zlarining rivojlanishiga yangi impuls olgan, bu fanda – mediata'lism kabi yo'nalish paydo bo'lishiga ma'lum bir turtki bo'lib xizmat qilgan, ya'ni ushbu sohaning konseptual apparati endigina shakllana boshlagan bir paytda, shu munosabat bilan "tarbiyachining mediakompetentligi" atamasi ilmiy adabiyottlarda hali keng tarqalmaganligini ta'kidamoqchimiz, bu o'tkazayotgan tadqiqotlarimizning dolzarbligini va qidirilayotgan atamaning mohiyatini ochib berish zarurligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, biz “tarbiyachining mediakompetentligi” tushunchasini tavsiflaymiz, bu shaxsiy ta’lim sifatida media-texnologiyalar vositalaridan faol foydalangan holda samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi, ochiq ta’lim media-makonida professional o’zini-o’zi anglash va o’zini-o’zi yangilash haqida xabardorlikka qaratiladi va bir qator tarkibiy qismlarning mavjudligini taxmin qiladi: motivatsion – qadriyat, tarkibiy va protsessual.

Tarbiyachilarning mediakompetentligini rivojlantirishning dolzarbliji, unga erishish uchun asosiy shartlarni aniqlash zarurligini taqozo etadi. Ulardan eng muhim o’rganilayotgan hodisaning tarkibiy tuzilmasini aniqlashdir. O’rganilayotgan hodisa to’g’risida yaxlit tasavvurga ega bo’lish uchun uning semantik tarkibiy qismlarini yetarlicha aniqlik bilan tavsiflash kerak, bu o’rganilayotgan sifatning aniq chegaralarini aniqlashga imkon beradi, uning rivojlanish dinamikasini kuzatishni osonlashtiradi. U yoki bu sifatning tuzilishi o’rganilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini batafsilroq ko’rsatishga imkon beradi. Tarbiyachi mediakompetentligining tarkibiy qismi zamnaviy tarbiyachining kasbiy va pedagogik faoliyatining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ta’limni medialashtirish tarbiyachining mediakompetentligini shakllantirishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan. Faqat kasbiy o’sishga intilayotgan, o’qitish va tarbiyaning yangi media texnologiyalarini o’zlashtirgan va ularni amalda sinab ko’rgan tarbiyachini an’anaviy o’qitish va tarbiya usullaridan foydalananadigan tarbiyachiga qaraganda samaliroq ishlaydi. Tadqiq etilayotgan muammo kontekstida izlanayotgan fenomenning kam o’rganiganligini va ko’p qirralilagini hisobga olib, tarbiyachining mediakompetentligi tuzilishini taqdim etish maqsadga muvofiq deb topdik.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Спичкин А.В. Содержание медиаобразования: предметный и аспектный подходы // А.В.Спичкин//Наука и образование Зауралья. – 1999. –№ 3-4. –С.121-124.
2. Стерденко С.М. Роль семьи в формировании медиакультуры подростков. Ученые записки Таврицкого национального университета им. В.И.Вернадского. Серия “Филология. Социальная коммуникация”. Том 21(60). 2008, №1. – С. 344.
3. Taylakov N.I. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim muassasalarida axborotlashgan ta’lim muhitini yaratish. // Uzlusiz ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari: muammolar va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 2016, 207-b.
4. Ташкенбаева С.Ж. Педагогические условия повышения квалификации классных руководителей в контексте новых воспитательных парадигм :дис. канд. пед. наук / С.Ж. Ташкенбаева. – Астана, 2008. – С. 156.
5. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiyo o’ta’lim tizimida o’quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalari. –T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O’zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2015. 160-b.